

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashev

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

ТАРИХ**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



УО'К: 101.1

HUQUQIY ONG MASALASIGA FALSAFIY YONDASHUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ФИЛОСОФСКОГО ПОДХОДА К ПРОБЛЕМЕ ПРАВОСОЗНАНИЯ

CHARACTERISTICS OF THE PHILOSOPHICAL APPROACH TO THE PROBLEM OF LEGAL CONSCIOUSNESS

Abdullayev Sunatilla Nurilloyevich

Buxoro davlat universiteti Yurisprudensiya kafedrasi o'qituvchisi,
"ABDULSUN" advokatlik byurosi advokati

Annotatsiya

Isbot qilish institutida huquqiy ong masalasi falsafiy jihatdan ham mafkuraviy, ham ruhiy hamda moddiy faktorlarni o'ziga qamrab oladi. Huquqiy ong - umumiylilik nuqtai nazaridan ham, har bir shaxsning ham ongida shakllanadigan huquqiy bilimlar mavjudligi va bu bilimlarning ijtimoiy munosabatlarda faol ko'rinishi hisoblanadi. Shuningdek, maqolada huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В институте доказательства вопрос правового сознания охватывает как идеологические, так и психические и материальные факторы с философской точки зрения. Правовое сознание — это наличие правовых знаний как в общем смысле, так и в сознании каждого человека, а также активное проявление этих знаний в общественных отношениях. В статье также анализируются особенности философского подхода к вопросу правового сознания.

Abstract

In the institute of evidence, the issue of legal consciousness encompasses ideological, psychological, and material factors from a philosophical perspective. Legal consciousness refers to the presence of legal knowledge both in a general sense and in the mind of each individual, as well as the active manifestation of this knowledge in social relations. The article also analyzes the distinctive features of the philosophical approach to the issue of legal consciousness.

Kalit so'zlar: ruhiy faktor, huquqiy ong, kategoriya, isbot qilish instituti, falsafiy-huquqiy tasavvur, dalillarning maqbulligi, huquqiy meyorlar.

Ключевые слова: психологический фактор, правосознание, категория, институт доказывания, философско-правовое видение, допустимость доказательств, правовые нормы.

Key words: Psychological factor, legal essence, category, Institute of proof, philosophical and legal vision, the allowability of evidence, the rules of law.

KIRISH

Jinoyat sudlov ishlarini yuritishda isbotlash jarayoniga falsafiy yondashuv borasida mafkuraviy va ruhiy faktor sifatida huquqiy ongning ahamiyati masalasi ancha murakkab sanaladi. Huquqiy ong deganda huquq va huquqiy munosabatlarning turli sohalariga doir bo'lgan idrok meyorlarining tizimi tushuniladi. Huquqiy ong shakllanishida ko'rish, bilish, izlanish, eshitish va fikrlash kategoriyalari asosiy o'rinda turadi.

Muayyan shaxsning huquqiy ongi, uning alohida individual xususiyatlarini e'tiborga olmaganda, mohiyatan jamoatchilik ongi hisoblanadi, chunki har qanday individ o'z davridagi ijtimoiy yashash sharoitlarining mahsulidir. Jamoatchilik ongi mayjud va u davr, ijtimoiy tuzumning shakliga ko'ra turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Isbot qilish instituti subyektlarining huquqiy ongi yuqoridagilar bilan bir qatorda bilim, tajriba, yangicha fikrlash va ko'nikmalar asosida mustahkamlanib boradi. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Biz odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongni shakllantirmog'imoz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi erkinliklarini - ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va ma'suliyat ekanligini chuqur xis etib tursin" [1], deganlari ayni haqiqatdir.

SIYOSAT

Masalan, sobiq sovet tuzumi davrida kommunistik partiya mafkurasiga asoslangan jamoatchilikning «sotsialistik huquqiy ong»i mavjud deb hisoblangan. Bugungi kunda esa jamoatchilikning huquqiy ongini huquqiy davlat qurish yo'lidan borayotgan mustaqil davlatimizning odilona siyosati, aholining huquq va qonun sohasidagi tasavvur va tushunchalari, yurtimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlarga ularning munosabatlari tashkil etadi. Ijtimoiy haqiqat insonlar ongida, birinchidan, ushbu haqiqatni anglashning turli mahsulotlari, ikkinchidan, haqiqatga nisbatan turli munosabatlar ko'rinishida aks etadi. Isbot qilish instituti subyektlari huquqiy hodisalarini ko'rish, eshitish va idrok etish usuliga qarab huquqiy ongi tizimida bilish (ilm, g'oyalar) va ruhiy (his tuyg'ular va h.k.) qismi vujudga keladi. Lekin jamoatchilik ongida davr, tuzum, yashash va turmush tarziga xos bo'limgan, har qanday jamiyat asoslariga bog'liq bo'lgan falsafiy-huquqiy tasavvurlar mavjud. «Egilgan boshni qilich kesmaydi», «Haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi» degan maqollar xalq, jamoatchilikning huquq va haqiqat to'g'risidagi huquqiy ongidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Huquqiy idrok etish doirasiga texnik-yuridik, shuningdek tushunchalar, g'oyalar, nazariyalar shaklida ifodalangan yuridik fandagi ma'lumotlar, amaldagi huquq va isbot qilish instituti tarkibiy qismi bo'lgan dalillarni baholashga oid bilimlar kiradi.

Huquqiy ongning mazmunini esa mamlakat huquq tizimining asosini tashkil etuvchi prinsiplarning davlatning rivojlanishidagi ahamiyati, qonuniylik, asoslanganlik, adolat, erkinlik, teng huquqlilik, zo'ravonlikdan nafratlanish nuqtai nazaridan huquqqa bo'lgan ruhiy munosabat, buzilgan huquqlarni tiklashga intilish to'g'risidagi tasavvurlar tashkil etadi.

O'ta shakllangan huquqiy ong nafaqat insonning ijtimoiy munosabatlari va hodisalarning yuridik ma'nosini to'g'ri tushunishida, balki o'zining subyektiv bahosi va tilaklarini huquq talablariga ongli tarzda bo'ysundirishida namoyon bo'ladi. Isbot qilish institutida dalillarni to'g'ri baholash uchun yuridik normalarning mazmunini bilish va tushunish, ularni qo'llashda huquqning umumiyligi prinsiplariga asoslanish, qonuniylikka og'ishmay va qat'iy amal qilish, huquqqa xilof bo'lgan har qanday dalillarni baholash mezonlarini rad etish talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, huquqiy ongning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, u doimiy tarzda o'zgarib turgan. Ommanning huquqiy ongi faqat qonunlarda ifodalanmay, ba'zi hollarda meyoriy hujjatlarda tartibga solinmagan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, qonunlarni to'ldirish vazifasini ham bajargan. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida hozirgi Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin, mamlakatda jadidchilar harakati avj olib, ularning atoqli namoyondalaridan Behbudiy, Fitratlar tomonidan davlatni idora qilish bo'yicha turli g'oyalar ilgari surilgan hamda jinoyatni isbot qilish usullari xususida fikrlar mavjud. Jumladan, o'lkada huquqiy ishlarni shariat qonunlari asosida hal etishga erishilganligida mazkur vatanparvarlarning xizmati katta [3].

Rus olimlardan birining ta'kidlashichacha, «Huquqiy ong va ichki ishonch umumiyligi va xususiylikning nisbatidir» [2] degan fikri ilmiy asosga ega emas. Bunday yondashuv natijasida huquqiy ongga ega bo'lgan isbot qilish instituti subyektlari jinoyat iish bo'yicha xato qarorlar qabul qilgan taqdirda ham zarur ichki ishonchga ega bo'lgan hisoblanadi. Ichki ishonchning huquqiy ongga bunday almashtirilishi isbotlanmagan qarorlarni oqlash imkonini beradi. Bu holat jamiyat taraqqiyotiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bizning fikrimizcha, "huquqiy ong-umumiyligi nuqtai nazaridan ham, har bir shaxsning ham ongida shakllanadigan huquqiy bilimlar mavjudligi va bu bilimlarning ijtimoiy munosabatlarda faol ko'rinishi hisoblanadi."

Bugungi kunda mustaqil davlatimizdagi barcha qonunlar mukammal va ular yildan yilga yanada takomillashib bormoqda. Shu jihatdan isbot qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslardan dalillarning maqbulligi, ishonchliligi, aloqadorligi, yetarlilikini aniqlashda huquqiy meyorlarni bilish va ularning mazmunini to'la tushunish, ularni amaliyotda qo'llashda huquqning umumiyligi prinsiplariga tayanish, qonuniylikka og'ishmay amal qilish, doimiy tarzda o'z huquqiy onglarini orttirib borish talab etiladi.

Shuningdek, amaldagi qonunchilikni bilish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud va boshqa protsess ishtirokchilar huquqiy ongining ajralmas tarkibiy qismi bo'lmog'i lozim. Bu ma'noda jinoyatlarni isbot qilish jarayonida huquqiy ongga tayanish xuddi qonunga tayanish kabi mazmun kasb etadi. Biroq huquqiy ongning mazmuni muayyan huquqiy normalar haqidagi tasavvurlar bilan cheklanmay, huquqning asosiy prinsiplari va g'oyalar, odamlarning huquqiy hodisa hamda qonuniylikka munosabatlarini ham qamrab oladi va faqat ularning yagona birligi huquqiy ongni tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, isbot qilish institutida huquqiy ong masalasining falsafiy ahamiyati chuqr mulohazalar mahsulidir va bilish faoliyatining ham huquqiy ham falsafiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan holda shaxsnинг ongida paydo bo'ladigan bilimlar majmui hisoblanadi. Shuningdek, jinoyat sudlov ishlarini yuritishda isbot qilish jarayonida subyektlarning huquqiy ongga tayanib ish ko'rishdan asosiy maqsad ish bo'yicha haqiqatni aniqlash va uni adolatli hal etishdir. Haqiqatni buzib ko'rsatish yoki qonundan har qanday chekinish esa davlat manfaatlariiga zid hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И. А. "Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби". Тошкент. "Ўзбекистон", 1997 йил. 120 бет.
2. Малахов В.П. Природа, содержание и логика правосознания: Автореф. дисс. ... д-ра юрид. наук. –М.: 2001. –Б.18.
3. Утемуратов М.А, Садыков С.А. История политических и правовых учений Узбекистана. –Т.: ТГЮИ, 2009. –Б.147-159.